

## Mumtoz merosga muhabbat

2021-yil 11-fevral kuni 3 - Talabalar turar joyidagi Axborot - resurs markazining filialida kutubxonachi D. Sobirova va M. Nazarovalar boshchiligidagi “So'z mulkining sultonı Alisher Navoiy hamda buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludlari” ga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Tadbirda YeRB dekani o'rribosari X.X.Eshova, GM fakulteti yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan o'rribosari O. Xabibullaev, QSXET fakulteti yoshlari bilan ishlash bo'yicha dekan o'rribosari A. Botirov, TTJ direktori I. Buxorov, TTJ tarbiyachi pedagogi N. Isokulova va D. Shukrullaevlar hamda talaba yoshlari ishtirok etdilar.



Ushbu tadbirda talaba yoshlari tomonidan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridan tayyorlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Tadbir so'ngida faol ishtirok etgan talabalar: QSXET fakulteti talabalari “Shoh Bobur” sahna ko'rinishi, talabalar M. Bozorova, O. Maxamatovlar “Navoiy va Guli” monologgi, GM fakulteti talabasi A. Abilkasinova Alisher Navoiyiga bag'ishlab yozgan she'ri va boshqa ko'pgina talabalar buyuk shoirlarimizning durdona asarlarini ifodali o'qib eshittirganlari uchun “Faxriy yorliq” va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



**TIQXMMI matbuot xizmati**